



13-dars. Sonlarni (12 + 28) ko'rinishda qo'shish



1. Kassir stol ustiga bir necha to'p tanga qo'ydi. Unda jami nechta tanga bor? Qanday yechishni tushuntiring.



1 o'nl. 2 birl. + 2 o'nl. 8 birl. = 3 o'nl. 10 birl. = 4 o'nl.



Ikki xonali sonlarni qo'shishda **birliklar birliklarga**, **o'nliklar esa o'nliklarga** qo'shiladi.

O'nta birlik bitta o'nlikka aylantiriladi va u o'nliklarga qo'shiladi.



2. Misollarni yuqoridagi namuna bo'yicha yeching.

$$48 + 12$$

$$31 + 29$$

$$44 + 16$$

$$63 + 17$$

$$23 + 17$$

$$59 + 31$$

$$42 + 38$$

$$22 + 28$$



3. Rasm bo'yicha masala tuzing. Unga qisqacha shart yozing. Masalani yeching.



Olma – 39 kg



Shaftoli – ? kg,
21 kg ko'p

? kg



4. Sonlarning yig'indisi va ayirmasini toping.

$$27 + 23 = 50$$

$$27 - 23 = 4$$

$$56 \text{ va } 14$$

$$59 \text{ va } 31$$

$$37 \text{ va } 23$$

$$28 \text{ va } 12$$



5. To'g'ri to'rtburchakning eni daftarning 6 katagiga teng, bo'yi esa undan 14 katak uzunroq. Ushbu to'g'ri to'rtburchakni daftaringizga chizing. Uning perimetri necha santimetrga teng?



6. Har bir qatordagi qonuniyatni aniqlang.



7. Ifodalarni yozing va ularning qiymatini toping:

- a) 21 va 9 sonlari yig'indisiga 5 sonini qo'shish;
- b) 7 soniga 20 va 3 sonlari yig'indisini qo'shish;
- d) 18 va 9 sonlari ayirmasiga 31 sonini qo'shish;
- e) 8 soniga 45 va 23 sonlari ayirmasini qo'shish.

8. Birinchi daraxtdan 24 kilogramm, ikkinchi daraxtdan esa birinchi daraxtdagidan 16 kilogramm ko'p nok terib olindi. Noklarning umumiy hosili qanday?

